



Analysis of the interrelationship between religious elites and political authority in the Bukhara Emirate within the framework of Amir Shohmurod's reforms

Fakhriya ABDURASULOVA¹

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

ARTICLE INFO

Article history:

Received October 2025

Received in revised form

5 October 2025

Accepted 10 November 2025

Available online

25 November 2025

Keywords:

judicial system,
Kazakh,
chairman,
Sharia,
taxes,
fatwas,
mufti,
religious figures.

ABSTRACT

This article examines the judicial system of the Bukhara Emirate under the Manghit dynasty (1756–1920) as a central element of public administration. It focuses on the court structure, operational mechanisms, and matters of criminal law and punishment. The study analyses the role of Sharia norms in judicial practice and their interaction with political reforms and socio-economic transformations of the period. Emphasis is placed on how religious and legal institutions contributed to the consolidation of power and the governance of society.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss11/S-pp104-110>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Amir Shohmurod islohotlari doirasida Buxoro amirligidagi diniy elita va siyosiy hokimiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning tahlili

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

Sud tizimi,
qozikalon,
rais,
shariat ahkomlari,
solliqlar,
fatvo,
muftiy,
diniy ulamolar.

Mazkur maqolada Buxoro amirligining sud tizimi va uning davlat boshqaruvidagi o'рни tarixiy-huquqiy tahlil asosida o'rganiladi. Tadqiqotda, xususan, mang'itlar sulolasi (1756–1920) davridagi sud institutlarining tashkiliy tuzilmasi, ularning shariat ahkomlariga asoslangan faoliyati hamda jinoyat va jazoga oid qarorlar chiqarishdagi amaliy jihatlar yoritiladi. Shuningdek, sud hokimiyatining siyosiy tuzum bilan o'zaro aloqasi, amirlikda olib borilgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar bilan bog'liqligi va islom

¹ Doctoral Student, Department of History of Uzbekistan, National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek. E-mail: faxriyabahtiyorovna@gmail.com

huquqiy an'alarining jamiyat boshqaruvidagi o'rni tahlil qilinadi. Maqola Buxoro amirligi davlatchiligi tarixini o'rganishda sud tizimi va qozilik faoliyatining dolzarb ilmiy jihatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Анализ взаимоотношений между религиозной элитой и политической властью в Бухарском эмирате в контексте реформ эмира Шахмурада

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

судебная система, казах, председатель, шариат, налоги, фетвы, муфтий, религиозные деятели.

В настоящей статье рассматривается судебная система Бухарского эмирата в период правления династии Мангытов (1756–1920 гг.) как важный компонент государственного управления. Особое внимание уделено структуре судов, механизмам их функционирования, а также вопросам уголовного права и наказаний. Анализируется роль норм шариата в судебной практике эмирата и их взаимодействие с политическими реформами и социально-экономическими преобразованиями того времени. Исследование подчёркивает значимость религиозно-правовых институтов в укреплении власти и управлении обществом.

KIRISH

Mustaqillik yillarida mamlakatimiz bosib o'tgan o'z taraqqiyot yo'lining tub tahlili, hozirgi kunda sud hokimiyatining mustaqilligini rivojlantirish borasidagi islohotlar, jahon bozori kon'yunkturasi keskin o'zgarib borayotganligini ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan 2016-yilning 21-oktyabrida qabul qilingan PF-4850-sonli "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori sudyalarning tom ma'noda mustaqilligi va ular faqatgina qonunga bo'ysunishiga oid huquqiy normalarni amalda to'la-to'kis ro'yobga chiqishiga zamin yaratdi. Qolaversa, "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmon hamda ushbu Farmon bilan tasdiqlangan "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturida sudyalarning chinakam mustaqilligini ta'minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirishga oid qator chora-tadbirlar nazarda tutildi. Yurtimizdagi sud tizimidagi amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashda o'z aksini topib kelmoqda. Islom olamining markazi hisoblangan Buxoroda mang'itlar hukmronligi 1756–1920[2, C.450]-yillarni o'z ichiga olib, Buxoro amirligi davlatchilik tarixini o'rganishda davlat tizimida sudning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Buxoro amirligi davlat boshqaruvi tizimida sud organlari va qozilik amaliyoti muhim institutsional o'rinni egallagan. Islom huquqi – shariat tamoyillari asosida shakllangan mazkur tizim faqatgina adolatni qaror toptirish vositasi bo'lib qolmay, balki diniy

mafkurani siyosiy hokimiyat bilan uyg'unlashtirish vositasi sifatida ham xizmat qilgan. Qozilar, muftilar va boshqa diniy huquqshunoslar nafaqat sud jarayonlarini olib borgan, balki jamiyatdagi axloqiy tartib va diniy intizomni ta'minlovchi muhim ijtimoiy guruh sifatida maydonga chiqqanlar. Jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida, ijtimoiy-huquqiy va ma'naviy yo'alishlarda ham milliy o'zligimizni anglash, davlatchiligimiz tarixini o'rganish, davlat arboblari hamda mutafakkirlarimizning boy ilmiy ijodiy hayotini yoritish bilan bog'liq izlanishlarga mustaqilligimiz yillarida katta e'tibor qaratilib kelinmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAT TAHLILI VA METODOLOGIASI

Buxoro amirligi davrini xolisona tarzda o'rganish borasida ham muayyan tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Rus, G'arb va mahalliy tadqiqotchilar bu sohani o'rganishda tarixiy, huquqiy va sotsiologik jihatlarini hisobga olgan holda tadqiqotlar olib borishgan. H.B.Xankov tomonidan 1843-yilda nashr etilgan «Описание Бухарского ханства» [3] nomli fundamental asarida Buxorodagi sud amaliyoti atroflicha tahlil etilgan. Tadqiqotchining ta'kidlashicha, qozilar nafaqat shariat me'yorlariga tayangan holda, balki siyosiy hokimiyatning bevosita topshiriqlari asosida ham qarorlar chiqargan. Bu esa qozilik lavozimi diniy-huquqiy jihatdan mustaqil bo'lishiga qaramay, amalda siyosiy hokimiyat ta'siridan xoli bo'lmaganini ko'rsatadi. Markaziy Osiyodagi siyosiy hokimiyat va diniy elita o'rtasidagi murakkab munosabatlar A. von Kugelgenning ingliz va rus tillarida chop etilgan fundamental tadqiqotlarida ham chuqur yoritilgan. Jumladan, uning "The Legitimization of the Central Asian Mangit Dynasty in the Works of Their Historians" (2004) [4] nomli monografiyasi hamda ushbu asarning rus tilidagi nashrida mang'itlar sulolasining diniy-legitimizatsiya siyosati ko'rib chiqilgan. Muallif Buxoro amirlari, xususan Amir Shohmurodning siyosiy hokimiyatini diniy asoslar bilan mustahkamlashga qaratilgan strategiyalarini tahlil qiladi. Unga ko'ra, qozilar va muftiyalar tomonidan chiqarilgan fatvolar nafaqat diniy masalalarda, balki amir hokimiyatini qonuniylashtirishda ham muhim vosita bo'lib xizmat qilgan. Shuningdek, O.Klichev (2020) tomonidan yozilgan "Scholarships of Emirs of Bukhara" [6] nomli maqolada Buxoro amirlari tomonidan diniy ulamolarni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash siyosati tahlil qilinadi. Ushbu maqolada ilmiy ulamolarni davlat siyosatiga integratsiya qilish vositasi sifatida moddiy rag'batlantirish amaliyoti o'rganiladi. **H. Boboyev va Z. Hidir** muallifligidagi "O'zbek davlatchiligi tarixi" (II kitob, 2009) [3] asarida Amir Shohmurod davridagi islohotlar, jumladan sud tizimidagi o'zgarishlar alohida ta'kidlanadi. **Z. Muqimov**ning "Qilich va qalam sohiblari" (1997) [10] nomli tarixiy-biografik to'plamida Amir Shohmurod shaxsiyati va uning islohotchi sifatidagi faoliyati yoritiladi. Bu esa diniy zaadogonlarning siyosiy tizimga qanchalik darajada bog'langanini va diniy-huquqiy institutlarning davlat manfaatlariga xizmat qilganini ko'rsatadi. **A. Xolikulov** (2022) "Buxoro amirligida rasmiy qabul marosimlari xususida ayrim mulohazalar" [18] deb nomlangan maqolada rasmiy diplomatik qabul va marosimlarda diniy vakillarning ishtiroki, ularning siyosiy hayotdagi o'rni haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Buxoro amirligida sud tizimi O'rta Osiyodagi boshqa xonliklar singari bir xil ko'rinishga ega bo'lgan. Xususan, amirlikda sud ishlari shariat asosida olib borilgan, qozi va a'amlar tarkibiga kiritilgan. Ular amir tomonidan tayinlangan, qozilik faoliyati qozikalon tomonidan boshqarilgan [9, C.27]. Buxoro amirligining davlatchilik tarixini o'rganishda uning sud tizimi, jarayoni hamda jinoyat va jazoga oid masalalarni batafsil o'rganish muhim ahamiyatga ega. Sud tizimi davlatning ma'muriy apparati qo'lida bo'lsa-

da, fiqh ilmi ulamolarining nazorati ostida bo'lgan. Davlatda diniy ulamolarning sud faoliyatini nazorat qilishi ularning davlat boshqaruvidagi ahamiyati naqadar yuqori ekanligiga guvoh bo'lamiz. Amirlikda qozilik mahkamasi mavjud bo'lib, qozi ul-quzzot tomonidan boshqarilgan. Unda mirzalar va mulozimlar faoliyat yuritganlar [19, C.58]. Qozi ul-quzzot, o'z navbatida, Buxoro shahrining bosh qozisi hisoblangan. Mirzalar – qozilik mahkamasining ish yurituvchilari, mulozimlar esa surishtiruv ishlarini olib borish kabi foliyat bilan shug'ullangan [19, C.58]. Devoni ulamo – qozilik faoliyatiga ko'maklashuvchi va maslahat beruvchi idora hisoblangan. Ushbu idorada muftiylar va a'lamlar o'z faoliyatini olib borgan. Manbalarning guvohlik berishicha, mazkur devonda 12 muftiydan tashkil topgan kengash ish olib borgan [16, C.17]. Mahalliy qozilik idorasi-barcha bekliklarda ushbu idoralar bevosita amir tomonidan tayinlanadigan qozilar tomonidan boshqarilgan. Aynan man shu idorada muftiylar va mulozimlar ham xizmat qilganlar. Qozilik mahkamasidan farqli o'laroq, mahalliy qozilik idorasida mulozimlar qozilar hukm va qarorlari ijrosini ta'minlash bilan faoliyat olib borgan. [19, C.59]. Qozilar mahalliy hokimlardan mustaqil faoliyat yuritib, muayyan darajada hokimlikning faoliyati ustidan ham nazoratni amalga oshirganlar [16, C.173]. Qozi askar – bevosita qozilik mahkamasiga bo'ysunuvchi, harbiy xizmatchilar tomonidan xizmatda, jang davomida yoki boshqa urishlarda sodir etilgan harbiy jinoytlarni ko'rib hal etuvchi qozi hisoblangan. Ba'zi bir manbalarda bunday turdagi ishlar naqib tomonidan hal etilgan deb ham aytiladi. [15, C.140]. Buxoro amirligida sud sohasi bo'yicha bir qator hukmdorlar tomonidan islohotlar amalga oshirgan bo'lib, ulardan biri Amir Shohmuroddir. Hukmdor sifatida shaxsi juda qiziq, sufiy, Buxorodagi o'zbek mang'itlari sulolasining birinchi amiri, tarixda Amir Shohmurod nomi bilan tanilgan amir Amir Ma'sum al-Ma'ruf, Ibn Doniyolbiy otaliq Shohmurodbiydir (1785-1800) [9, C.131]. Amir Shohmurod davri soliqlardan ezilgan xalqning harakati kuchaygan vaqtda taxtga to'g'ri kelganligi uchun ham birinchi islohotni soliqlarni tartibga solishdan boshladi. Butun Buxoro shahri aholisiga tarxon yorlig'i berib, oldingi hukmdorlar joriy qilgan, shariatga to'g'ri kelmaydigan yorg'u, boj, tarx, tushmol, yasoq kabi bir qancha soliqlarni bekor qilishga erishdi. Amir Shohmurodning har tomonlama zukkoligi, davlatni oqilona idora etishi, qonun ustuvorligini ta'minlaganligi ularga itoat etishi hamda ilm-ma'rifat tarafdori kabi xislatlarini inobatga olib tarixchilar unga ilm-u ma'rifat tarafdori deya ta'rif bergan. Shohmurodning davlat arbobi sifatida shakllanishida tasavvuf oqimining ta'siri juda kuchli bo'lib, bu haqda ayniqsa, uning Shayx Safarning muridi ekanligi muhim ahamiyat kasb etgan. U ilm ahlini e'zozlab, ularning ta'limotini yo'lga qo'ygan. Tarixchi Mulla Olim Mahdum Hoji o'zining "Tarixi Turkiston" asarida "Shohmurodbiy ziyoda so'fiy, Xudoga yaqinlashish yo'lini tutgan (doxuli suluk) va taraqqiyparvar, payg'ambar shariatining targ'ibotchisi, taomi o'z kasbi halolidin edi [8, C.110], – deb tavsiflaydi. Rus olimlaridan N.P. Ostroumov ham Shohmurodbiyning faoliyatiga yuqori baho beradi: "U xazinadan faqatgina o'z xizmati uchun shariatga ko'ra qancha haq berilsa, shuncha olgan, bu o'sha davr rus pulida bir kunga qirq tiyinni tashkil qilgan [12, C.17]. Ma'sum mang'itlarining birinchi hukmdorlaridan Doniyolbiy otaliqning 12 o'g'lidan kattasi bo'lib, garchi bosh qozi uni hokimiyatdan mahrum etishni maslahat bergan bo'lsa-da, u Buxoro taxtiga voris qilib tayinlandi va otasi vafotidan keyin 1785-yilda amir sifatida taxtga o'tirdi [7, C.62]. Shohmurod islohotlarining ba'zilari 1789-yilda Mirzo Bodi Devon tomonidan yozilgan "Majma al-arqam" (Raqamlar va ruqumlar, siyoqat haqida) asarida keltirilgan. Shohmurod hukmronligi boshida shariat tartiblariga qat'iy rioya qilishga alohida e'tibor

qaratdi. Qolaversa biz avvallari ko'rgan muxtasib- rais xizmatini, ya'ni bozorlardagi adolat buzilishi, ko'cha-kuylarda axloq normalariga rioya qilish kabilar bilan bog'liq tadbirlarni tikladi. Islohotchi hukmdorlar ichida, ayniqsa, uning sud tizimidagi islohoti diqqatga sazovordir. Bu haqida "O'zbekiston tarixi" kitobida bir band keltirilgan: "Har bir musulmon, hatto qul ham qoziga o'z shikoyati bilan kelishga va o'zining xo'jayini g'ayriqonuniy ish qilayotgan bo'lsa, uni javobgarlikka tortishga haqli qilib qo'yilgan edi" [20, C.688]. Bunday qoidaning joriy etilishi o'sha vaqtdagi Buxoro amirligi uchungina emas, balki Turkiston davlatlaridagi sudlovni ijobiylashtirish uchun tashlangan katta qadam bo'lgan. Manbalarga ko'ra, amirlikda sud hay'ati ishlarini Shohmurodning bevosita o'zi boshqargan. Sud ishlarini olib borish uchun maxsus sudlov qonunlari majmuasi ishlab chiqilgan bo'lib, barcha viloyat, tuman, beklik, qozilari aynan mana shu qonunlar majmuasi asosida ish olib borganlar [7, C.288]. Umuman olganda, Amir Shohmurod tomonidan o'tkazilgan islohotlar mamlakatdagi markaziy hokimiyatni mustahkamlab, yuksalishni ta'minlashga xizmat qilgan. Buxoro amirligi sud tizimida alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Hamma sudlar tepasida oliy-sudya – qozikalon turgan. Amir Muzaffar davridan boshlab, amirlikdagi barcha huquqiy normalar qozilar tomonidan hal qilingan. Barcha fuqarolik, xo'jalik va jinoiy ishlar Qur'on asosida ko'rib chiqilgan hamda jazolar tayinlangan. Qozilar amir irodasiga ko'ra, qozikalon tomonidan tayinlangan. Shariat bo'yicha boshqaruv qozilar qo'lida bo'lgan. Qozikalon amirlik poytaxtining bosh qozisi bo'lishi bilan birga, davlatdagi bosh qozilar boshlig'i hisoblangan [9, C.288]. Buxoro amirligida qozilikka quyidagi asosiy talablar qo'yilgan: musulmon erkak kishi bo'lmoqligi, erkin, voyaga yetgan, oilali, jismoniy kamchiligi mavjud bo'lmagan, fiqh ilmini mukammal bilishi, hayotiy tajribaga ega bo'lgan, arab tilini biladigan hamda badnom fuqaro bo'lmasligi kabilar. Sadriddin Ayniyning fikriga ko'ra, bunday talablarga faqatgina Buxoro madrasalarida 19-yil davomida bilim olgan bitiruvchilar javob bera olishlari mumkin edi [1, C.138-141]. Zaruriyat tug'ilgan hollarda qozi qozilik talablariga javob beradigan fuqarolardan bir yoki bir necha o'rinbosarlarni tayinlar edi. Ayollar qozilik lavozimiga tayinlanmagan. Qozi muayyan bir ish bo'yicha jarima, qamoq va kaltaklash kabi jazolarni tayinlash huquqiga ega bo'lib, og'ir jinoyatlarni (odam o'ldirish, bosqinchilik, talonchilik) sodir etgan shaxslarga nisbatan o'lim jazosini hal qilish yoki avf qilish masalasi bevosita amir tomonidan hal qilingan. O'lim jazosiga hukm qilish qozi tomonidan tuzilsa-da, lekin uni faqat amir tasdiqlagan yoki rad etgan [24, C.62].

TAHLIL VA NATIJALAR

Buxoro amirligi sud tizimida kuzatilgan muhim jihatlardan biri shuki, sud jarayonlari, odatda, muayyan to'lov asosida amalga oshirilgan bo'lib, qozilar har bir da'voni belgilangan haq evaziga ko'rib chiqqanlar. Sud majlislari ko'pincha jamoat joylari, xususan, masjidlarda tashkil etilgan bo'lsa-da, ba'zan qozilar ishlarni o'z uylarida ham yuritganlar. Bunday holat, ayniqsa, da'volarni tahlil qilish va tomonlar o'rtasida muzokaralar olib borishda qulaylik yaratgan. [6, C.77] Buxoro amirligi davlatchilik tizimida fuqarolarning davlat boshlig'iga murojaat yo'llash amaliyoti an'anaviy-huquqiy asosda shakllangan bo'lib, u boshqaruv va jamiyat o'rtasidagi kommunikativ vosita sifatida muhim rol o'ynagan. Ariza va shikoyatlarni qabul qilish tartibi qat'iy rejalashtirilgan bo'lib, haftasiga ikki marotaba maxsus ajratilgan kunlarda amalga oshirilgan. Murojaatlar ikki asosiy shaklda taqdim etilgan: birinchisi – ommaviy ariza berish tartibi bo'lib, bunda fuqarolar uchun saroyda ommaviy qabullar tashkil etilgan.

Ushbu qabullar haqida jamoatchilikka bir necha soat avval e'lon berilgan, bu esa barcha ijtimoiy qatlamlarga davlat rahbariga murojaat qilish imkonini bergan. Ikkinchi shakl esa bevosita yakka tartibda murojaat qilish imkoniyatini nazarda tutgan bo'lib, bunda da'vogarlar amir saroydan chiqayotgan paytda shaxsiy shikoyat yoki takliflari bilan to'g'ridan-to'g'ri murojaat etish huquqiga ega bo'lgan [18, C.24]. Buxoro amirligi boshqaruv tizimida ariza va murojaatlarni ko'rib chiqish jarayoni muayyan rasmiy-marosimiy tartib asosida amalga oshirilgan. Amir fuqarolardan tushgan ariza va shikoyatlarni odatda Ark saroyining markaziy hududida – Buxoro arki ichida shaxsan ko'rib chiqqan. Ba'zi hollarda esa bu jarayon saroy minorasi oldida ommaviy tarzda tashkil etilgan yig'inlar chog'ida amalga oshirilgan [6, C.32]. Tarixdan ma'lumki, islom huquqida isbot etish ta'limotlari qiyosiy usulda tahlil etilib, batafsil o'rganilgan. Buxoro amirligida 1) aybni tan olish; 2) guvohning ko'rsatmalari; 3) qasam ichish; 4) yozma dalillar isbot etishning asosiy shakllari hisoblangan [2, C.205]. Guvoh o'z ko'rsatmalarini faqat o'zi bilgan yoki ko'rganiga asoslanib, bayon etishi kerak bo'lgan. Boshqa birovdan eshitib bilganlarini sud jarayonida aytib berish- "guvoh tariqasida ko'rsatma" deb huquqiy tan olinmagan [10, C.63]. Buxoro amirligida sud jarayonining yuritilishida guvohlik institutiga nisbatan qat'iy me'yoriy cheklovlar mavjud bo'lgan. Jumladan, voyaga yetmaganlar, qullik maqomidagi shaxslar, islom diniga mansub bo'lmaganlar (g'ayridinlar), tuhmatchi yoki ig'vogar sifatida tanilganlar, yolg'on guvohlik berganlikda fosh bo'lgan shaxslar, qasamyodni suiiste'mol qilganlar (qasamxo'rlar), ilgari jazoga tortilgan jinoyatchilar hamda sudlanuvchi bilan yaqin qarindoshlik aloqasiga ega bo'lgan shaxslar guvoh sifatida sud majlislarida ishtirok etish huquqidan mahrum etilgan. [10, C.105]. Sud ishlarini tezlashtirishni amalga oshirilishi sudning eng to'g'ri belgilari deb topilgan. Qozi qaroridan norozi bo'lganlar qozikalon yoki amirga qayta ariza topshirishga haqli hisoblangan. Qozi chiqargan hukmni qozikalon, u chiqargan qarorni esa faqat amir bekor qilishi mumkin bo'lgan [19, C.202]. Buxoro amirligi sud tizimi o'z davridagi boshqa musulmon davlatlarinikidan keskinroq jazo choralarini qo'llashi bilan ajralib turgan. Xususan, o'g'irlik va shunga o'xshash og'ir jinoyatlar sodir etgan shaxslar jamoat oldida minoradan uloqtirilgan, jazoni ijro etishning yana bir shakli sifatida esa jinoyatchilarni zindon yoki kanaxonaga tashlash amaliyoti mavjud bo'lgan. Ushbu jazo tizimi shariat normalariga asoslangan bo'lib, jinoyatchilikka qarshi murosasiz munosabat va ijtimoiy tartibni saqlashga qaratilgan qat'iy yondashuvni ifodalaydi. [20, C.98].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mang'itlar sulolasi hukmronligi davridagi Buxoro amirligida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotda sezilarli yuksalishlar kuzatilgan bo'lib, ayniqsa Amir Shohmurod davrida davlat boshqaruvining izchil shakllanishi va mustahkamlanishi muhim tarixiy bosqichlardan birini tashkil etadi. Mazkur davr sud hokimiyatining shakllanishi va uning amaldagi faoliyati orqali davlatchilik tamoyillarining rivojlanishida muhim iz qoldirgan. Bugungi kunda bu tajribalarni tahlil qilish, tarixiy meros asosida zamonaviy mustaqil sud hokimiyati tizimini barpo etish yo'lidagi sa'y-harakatlarda muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu bois, tarixiy sud institutlarini o'rganish yosh tadqiqotchilar uchun nafaqat ilmiy qiziqish, balki dolzarb vazifa sifatida maydonga chiqmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Айни, Садриддин. *Бухара (воспоминания)*. – Душанбе: Ирфон, 1980.
2. Барракаев, Ж., Хайдаров, Й. *Бухоро тарихи (энг қадимги даврлардан Улуғ Октябр инқилобигача)*. – Т.: Ўқитувчи, 1991.

3. Бобоев, Ҳ., Ҳидиров, З. *Ўзбек давлатчилиги тарихи*. II китоб. – Т.: Фан ва технология, 2009. – 187 б.
4. Донеш, А. *История мангитской династии* / Пер. И.А. Наджафовой. – Душанбе: Дониш, 1967.
5. Ешов, Б. *Ўзбекистон давлатчилиги ва бошқарув тарихи*. – Тошкент, 2012.
6. Кличев, О. Scholarships of Emirs of Bukhara // *Oriente Moderno*, 2020, Vol. 100, No. 1, pp. 57–74. <https://doi.org/10.1163/22138617-12340227>
7. Кюгельген, А. фон. *Легитимация среднеазиатской династии мангытов в произведениях её историков (XVIII–XIX вв.)*. – Алматы: Дайк-Пресс, 2004. – 516 с.
8. Махдум Ҳожи, Мулло Олим. *Тарихи Туркистон*. – Қарши: Насаф, 1992.
9. Мирза Абдулазим Сомий. *Мангит султонлари тарихи*. – Т.: Шарқ юлдузи, нашр йили кўрсатилмаган.
10. Мукимов, З. *Қилич ва қалам соҳиблари (Давлат арбоблари ҳақида лавҳалар)*. – Самарқанд, 2008.
11. Нечаев, А.В. *По горной Бухаре. Путевые очерки*. – СПб., 1914.
12. Острамов, Н.П. *Туземцы Туркестанского края прежде и теперь*. – Ташкент, 1912.
13. Президент.уз. [Rasmiy veb-sayt] – <https://president.uz>
14. Сагдуллаев, А., Аминов, Б., Мавлонов, Ў., Норкулов, Н. *Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти*. – Т.: Академия, 2000.
15. Семёнов, А.А. *Бухарский трактат о чинах и званиях и об обязанностях носителей их в средневековой Бухаре* // Советское востоковедение. – Москва, 1948.
16. Тўхтаматов, Т.Г. *Россия и Бухарский эмират в начале XX века*. – Душанбе: Ирфон, 1977.
17. Хаников, Н.В. *Описание Бухарского ханства*. – СПб.: Типография Императорской Академии Наук, 1843.
18. Холиқулов, А. Бухоро амирлигида расмий қабул маросимлари хусусида айрим мулоҳазалар // *Znachenіye tsifrovуkh tekhnologiy v izuchenii istorii Uzbekistana*, 2022, №1 (01). – Б. 350–355.
19. Шодиев, Ж.М. *Бухоро амирлиги давлатчилигининг ривожланиши*. – Т.: ТДЮИ нашриёти, 2010.
20. *Ўзбекистон ССР тарихи*. Тўрт томлик. I том.